CHEKA: SOVET MAXSUS XIZMATLARINING BOSHLANISHI VA UNING QONLI FAOLIYATI

Mirzaliyev Ulug'bek
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Umurzoqov Bunyod
Guliston davlat pedagogika instituti Gumanitar va
jismoniy madaniyat fakulteti 1- bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 1917-yilgi Oktyabr to'ntarishidan so'ng, bolsheviklar hokimiyatini saqlab qolish va "inqilob dushmanlari"ga qarshi kurashish maqsadida tuzilgan dahshatli tuzilma — VCHK (Butunrossiya favqulodda komissiyasi) faoliyati yoritiladi. Tarixda "qizil terror"ning asosi bo'lib qolgan ushbu tashkilot qanday qilib qisqa vaqt ichida cheksiz vakolatlarga ega bo'lgan o'lim mashinasiga aylangani, uning rahbarlari va qo'llanilgan g'ayriinsoniy qiynoq usullari arxiv ma'lumotlari asosida tahlil qilinadi. Maqola sovet maxsus xizmatlarining qonli ildizlari va butun bir mamlakatni qo'rquv ostida tutgan "Cheka"ning yashirin sahifalarini ochib berishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *VCHK, Cheka, Feliks Dzerjinskiy, qizil terror, Chekistlar, aksilinqilob, siyosiy qatag'on, sovet maxsus xizmatlari*

Аннотация: *В данной статье рассматривается деятельность ВЧК, созданной после Октябрьской революции 1917 года с целью сохранения власти большевиков и борьбы с "врагами революции". Анализируется, как эта организация, ставшая основой "красного террора", в короткие сроки превратилась в структуру с неограниченными полномочиями, действующую как "машина смерти".*

На основе архивных данных исследуются её руководители и применяемые бесчеловечные методы пыток.

Статья направлена на раскрытие кровавых истоков советских спецслужб и скрытых страниц деятельности "ЧК", державшей целую страну в страхе.

Ключевые слова: *ВЧК, ЧК, Феликс Дзержинский, красный террор, чекисты, контрреволюция, политические репрессии, советские спецслужбы*

Abstract: *This article examines the activities of the VChK, established after the October Revolution of 1917 with the aim of preserving Bolshevik power and fighting against "enemies of the revolution." It analyzes how this organization, which became the basis of the "Red Terror," quickly transformed into a structure with unlimited powers, functioning as a "machine of death." Based on archival sources, the article explores its leaders and the inhumane methods of torture that were used.*

The article aims to reveal the bloody origins of Soviet special services and the hidden pages of the activities of the "Cheka," which kept an entire country in fear.

Keywords: *VChK, Cheka, Felix Dzerzhinsky, Red Terror, Chekists, counterrevolution, political repression, Soviet special services.*

Kirish: 1917-yil Rossiyada oktabr inqilobi amalga oshgach, inqilob dushmanlari bilan kurashish, siyosiy muxolifatni yo‘q qilish va kontrrazvedka ishlarini olib borish uchun davlatga yangi maxsus xizmat lozim edi. Inqilob dohiysi Lenin yuqoridagi vazifalarni bajarish va mamlakatda bolsheviklarning mutlaq hukmronligini o‘rnatish uchun maxfiy politsiya yaratishga qaror qiladi. 1917-yil 7-dekabr kuni tashkil etilgan VCHK (Butunrossiya favqulodda komissiyasi) yoxud Cheka aynan shunday tashkilot bo‘ldi.

Tashkilot qachon va nima uchun tuzilgan edi?

Inqilobdan so‘ng yangi davlat qanday bo‘lishi va qanday tuzilmalarga ega bo‘lishi haqida munozaralar boshlanadi. Sobiq Rossiya imperiyasida inqilobga qarshi kuchlar hali ancha ko‘p bo‘lib, Lenin hukumati ular bilan kurashuvchi maxsus tashkilotga ega emasdi.

Aynan shunday vositaga, ya’ni aksilinqilobiy kuchlar bilan kurashuvchi kuchga ega bo‘lish uchun inqilobning ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri bo‘lmish Feliks Dzerjinskiyga inqilob dushmanlarini aniqlash va ularga qarshi kurash olib boruvchi maxsus agentlik tuzish topshiriladi.

1917-yil 20-dekabr kuni Xalq komissarlari kengashi yig‘ilishida nutq so‘zlagan Dzerjinskiy tuzilajak tashkilotning vazifalari haqida gapiradi. Uning ma’ruzasida tashkilot aksilinqilobiy va jinoiy faoliyatlarni bostirish uchun dastlabki tergov ishlarini olib borishi aytiladi. Shuningdek, u jinoyatchilarni hibsga olish va ularning mulklarini musodara qilish kabi vazifalarni bajarishini ham aytib o‘tadi.

Vladimir Ilich Lenin boshchiligidagi Xalq komissarlari kengashi yangi agentlik tuzish rejasini ma’qullaydi va kengash huzurida Butunrossiya favqulodda komissiyasi (Всероссийская чрезвычайная комиссия — ВЧК) tuziladi. Unga rahbar etib Feliks Dzerjinskiy tayinlanadi.

Dastlab VCHK (to‘liq nomi “Aksilinqilobiy harakat va sabotajga qarshi kurash bo‘yicha Butunrossiya favqulodda komissiyasi”) juda katta vakolat va jazo choralarini qo‘llash huquqiga ega emasdi. Uning asosiy vazifalari aksilinqilobchilarni topish va ularni oziq-ovqat kartalaridan mahrum qilish ocharchilik ro‘y bergan o‘sha paytda bunday kartadan mosuvo bo‘lish jiddiy jazo hisoblangan, “xalq dushmanlari” ro‘yxatini tuzish va nashr etish hamda aksilinqilobiy mulklarni musodara qilishdan iborat edi.

1917-yil 24-oktabrda Ishchi va askar deputatlari sovetining ikkinchi Butunrossiya qurultoyi yangi respublikada o‘lim jazosini bekor qiladi. Shu sabab VCHK yoki Vecheka dastlab qatl jazosidan foydalanmagan

“Qizil terror” Ammo mamlakatda fuqarolar urushi boshlanishi bilan vaziyat o‘zgaradi. 1918-yil fevralda Xalq komissarlar kengashi “Sotsialistik vatan xavf ostida!” chaqirig‘i ostida maxsus dekret chiqaradi. Unga ko‘ra, VCHK dushman agentlari, chayqovchilar, bezorilar, aksilinqilobiy agitatorlar, chet el josuslarini jinoyat sodir etgan joyida otib tashlash huquqiga ega bo‘ladi. Shunday bo‘lsa-da, bu jazo siyosiy muxoliflarga nisbatan qo‘llanmaydi. Qolaversa, Cheka xodimlari (chekistlar) soni bu davrida hali juda ko‘p emasdi.

Bolsheviklarga qarshi faollikning kuchayishi, fuqarolar urushining boshlanishi, 1918-yil iyuldagi chap sotsialist-inqilobchilarning muvaffaqiyatsiz qo‘zg‘oloni va avgust oyida Lenin hayotiga suiqasd uyushtirilishi Cheka safining keskin o‘sishiga olib keladi. Sentabr oyida Xalq komissarlari kengashining “Oq gvardiya tashkilotlari, fitna va qo‘zg‘olonlarga aloqador barcha shaxslarni otib tashlash” haqidagi farmonidan so‘ng butun mamlakat bo‘ylab VCHKning tarixda “qizil terror” deb nomlangan qatog‘on kampaniyasi boshlanadi.

Farmonda inqilob dushmanlarini sinfiy yo‘q qilish haqida ham gap borib, Cheka tez orada zodagon, ruhoniy va o‘rtahol dehqonlar sinfida “tozalash” ishlarini boshlaydi. Bir necha oy ichida Cheka tomonidan mingga yaqin kishi otib tashlanadi.

Farmonda inqilob dushmanlarini sinfiy yo‘q qilish haqida ham gap borib, Cheka tez orada zodagon, ruhoniy va o‘rtahol dehqonlar sinfida “tozalash” ishlarini boshlaydi. Bir necha oy ichida Cheka tomonidan mingga yaqin kishi otib tashlanadi.

"Qizil teror qurbonlari"

Tashkil etilganda bir necha yuz tergovchidan iborat bo‘lgan agentlik 1920-yilga kelib yuz mingdan ortiq xodimga ega bo‘ladi. Tashkilotning mahalliy bo‘limlari ham tuzilib, ular hududlardagi mulkdorlarni yo‘q qilish bilan shug‘ullanadi. Cheka inqilobning qilich va qalqoniga aylanadi. Uning yetakchisi Feliks Dzerjinskiy shafqatsiz va qattiqqo‘lligi sabab “Temir Feliks” nomini oladi.

Cheka hech qanday qonunga bo‘ysunmas edi. Tashkilot xohlagan odamini so‘roq qiladi, hibsga oladi, mol-mulkini musodara qiladi yoki otib tashlaydi. 1917—1923-yillardagi “qizil terror” davrida 90 mingga yaqin kishi Cheka yerto‘lalarida hech qanday sudsiz otib tashlanadi.

Qonunan Cheka Xalq komissarlari kengashi oldida javobgar bo‘lib, har qanday harakat uchun kengashdan ruxsat olishi kerak edi. Biroq ko‘p hollarda Dzerjinskiy operatsiyalarni tugatib bo‘lgandan so‘nggina kengashga xabar berardi.

1918-yil Adliya komissarligi Cheka qonunlarni o‘zboshimchalik bilan buzayotgani uchun tashkilotga qarshi chiqadi. Komissarlik Chekadan gumonlanuvchilarni hibsga olishdan oldin Adliya komissarligini bu haqida xabardor qilishni talab qiladi. Inqilobning ko‘pgina arboblari, jumladan, Nikolay Buxarin va ichki ishlar komissari Grigoriy Petrovskiy ham “jinoyatchilar bilan to‘lgan” Chekaning o‘zboshimchaliklarni to‘xtatishni

so‘raydi. Taniqli bolshevik Lev Kamenev esa tashkilotni butunlay tugatish haqida gapiradi.

Feliks Dzerjinskiy (markazda) VCHK a’zolari bilan

Kommunistik partiyaning eng ko‘zga ko‘ringan a’zolari Lenin, Stalin, Yakov Sverdlov va Lev Trotskiy Cheka terrorini qo‘llab-quvvatlaydi. Lenin qonunlarga o‘zgartirish kiritadi va Cheka Adliya komissarligini hibsga olish yoki qatl qilishdan oldin emas, keyin xabardor qilishi belgilab qo‘yiladi. Shu tariqa Chekaning qonunga bo‘ysunmasligi yanada mustahkamlandi

VCHK yoki Cheka insoniyat tarixidagi eng dahshatli qiynoq usullarini yaratgani va qo‘llagani bilan tarixning qora sahifalarida qolgan. Tashkilot hech qanday qonun bilan hisoblashmasligi sabab aybdorlarni xohlagan ko‘yiga solardi. Chekistlarning qiynoqlari g‘ayriinsoniy ko‘rinish kasb etgandi.

Tarixchi Orlando Faydjes “Xalq fojiasi” kitobida Chekaning ba’zi qiynoq usullari haqida yozadi:

Qiynoq usullarining nihoyatda “aqlli”ligiga ko‘ra Chekani ispan inkvizitsiyasi bilan taqqoslash mumkin. Har bir mahalliy Chekaning o‘ziga xos qiynoq usullari bor edi. Masalan, Xarkovda “qo‘lqop nayrangi” usulini

qo‘llashardi. Bunda qurbonning qo‘llari terisi shilinib ketgunga qadar qaynoq suvda qaynatiladi: natijada ularning qo‘llari qonab ketadi va teridan ajraladi. Qo‘l xuddi qo‘lqop (teri)dan ajralgan kabi bo‘lib qoladi.

Saritsin (keyinchalik Stalingrad, hozirda Volgograd) Chekasi esa qurbonlarning suyaklarini yarmidan aralardi. Voronej chekistlari yalang‘och insonlarni mixlangan bochkalar bilan qisishgan. Armavir qurbonlarining esa boshiga charm tasmani o‘rab, temir murvat bilan qisish orqali boshlari ezib tashlangan.

Kiyevda yanada dahshatliroq usul qo‘llangan: qurbonning tanasiga kalamushlar solingan qafaslarni yopishtirib, qafasni qizdirishadi. Natijada jon talvasasidagi kalamushlar qurbonning ichaklarini yorib, o‘tib ketadi.

Odessada qonxo‘r chekistlar qurbonlarni taxtalarga bog‘lab gulxan yoki qaynab turgan suvda sekinlik bilan kuydirgan. Qishdagi eng sevimli jazo esa yalang‘och qurbonlar ustidan ular tiriklayin muzlab qolmagunga qadar sovuq suv quyish edi .

VCHK qatllarni siyosiy maqsadlardan ko‘ra ko‘proq ommaviy dahshatga sabab bo‘lishi uchun uyushtirgan.

Bunga yorqin misol sifatida Lenin buyrug‘i bilan Penza shahrida yuz kishining omma oldida dorga osilishini keltirish mumkin.

1922-yil 6-fevral kuni Butunrossiya Markaziy ijroiya qo‘mitasi VCHKni tugatish, uning o‘rniga Ichki ishlar xalq komissarligi qoshida Davlat siyosiy boshqarmasi (Государственного политического управления — ГПУ) tuzish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Cheka qo‘shinlari ichki ishlar qo‘shinlariga aylantiriladi. Shunday qilib politsiya va davlat xavfsizlik organlarini boshqarish yagona komissarlik ixtiyoriga o‘tkaziladi. Biroq nom o‘zgargani bilan tizimda katta o‘zgarishlar bo‘lmaydi, GPU ham Cheka qilgan ishlarni davom ettiradi.GPUdan so‘ng OGPU (Объединённого государственного политического управления — Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi), uning vorisi NKVD (Народный комиссариат внутренних дел — Ichki ishlar xalq

komissarligi), keyin esa NKGB (Народный комиссариат государственной безопасности — Davlat xavfsizligi xalq komissarligi), MGB (Министерство государственной безопасности — Davlat xavfsizligi vazirligi) va nihoyat KGB (Комитет государственной безопасности — Davlat xavfsizlik qo‘mitasi) SSSR davlat xavfsizlik xizmatlari tashkiloti sifatida tashkil etiladi.

Ularning barchasi VCHK asosida yaratilgan va faoliyat yuritgan bo‘lib, vazifa va usullari ham deyarli bir xil edi. SSSR tarqalib ketgach, uning tarkibidagi davlatlar maxsus xizmatlari ham bo‘linib ketadi. Ularning juda kam qismida sobiq KGB bo‘linmalari butunlay qayta tashkil etildi. Ko‘pchiligida esa ancha puxta ishlab chiqilgan KGB, aslida esa VCHK tizimi saqlanib qoldi.

Xulosa: 1917-yilda vaqtinchalik chora sifatida tuzilgan VCHK (Cheka) qisqa fursat ichida nafaqat bolsheviklar hokimiyatini himoya qiluvchi qalqon, balki butun bir xalqning boshiga dahshatli kulfatlar solgan qatag‘on mashinasiga aylandi.

Feliks Dzerjinskiy rahbarligidagi ushbu tashkilot inson huquqlari va qonun ustuvorligi tushunchalarini butunlay inkor etgan holda, jamiyatda qo‘rquv va ishonchsizlik muhitini shakllantirdi.VCHKning qonundan ustun etib belgilanishi va uning keyingi vorislari (NKVD, KGB) uchun poydevor bo‘lishi, sovet tuzumi davomida millionlab begunoh insonlarning qatag‘on qilinishiga yo‘l ochib berdi.Cheka qo‘llagan g‘ayriinsoniy qiynoqlar va sudsiz qatllar insoniyat tarixining eng qora sahifalaridan biri bo‘lib qoladi. Ushbu qonli o‘tmishni o‘rganish bugungi kunda demokratik institutlar va inson huquqlari himoyasining naqadar muhimligini anglashga yordam beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR :

1) Faydjes, O. Xalq fojiasi: Rossiya inqilobi (1891–1924). — London:
2)Daryo.uz.URL:https://daryo.uz/2022/04/25/sobiq-sovet-davlatlarining-maxsus-xizmatlari-otasi

3) Internet resursi: Arxiv.uz — "VCHKning tashkil etilishi va faoliyati" mavzusidagi hujjatli materiallar.

4) O‘zbekiston tarixi (1917–1991-yillar)

5) Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the …” (Adeeb Khalid)